XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI





# XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2023- YIL YANVAR-MART***

***(DASTLABKI MA'LUMOT)***



# Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2023- yil yanvar-mart oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 856,7 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 102,8 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,4 %ni tashkil etdi.

| 0,02% | 95,35% | 4,06% | 0,57% |
|---|---|---|---|
| **B** | **C** | **D** | **E** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | *2022- yil yanvar-mart* | *2023- yil yanvar-mart* |
|---|---|---|
| B | 28,4 % | 190,1 % |
| C | 109,3 % | 100,5 % |
| D | 95,7 % | 135,5 % |
| E | 101,7 % | 134,6 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 90,1 %ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 0,5 %ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 35,5 %ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimining 34,6 %ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,02 %ini tashkil etdi.*



## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2023- yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 631,1 mlrd so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 95,4 %ini tashkil etdi.*

**2022- yil yanvar-mart** 96,8 %

**2023- yil yanvar-mart** 95,4 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,06 %ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 0,06 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 37,2 %ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 41,7%), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,2 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 2,8 %) va quyi texnologiyalisi – 53,9 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 52,1%)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 37,9 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2022- yilning yanvar-mart oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 124,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,8 % (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,3 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 157,9 %)ni, yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to`qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,3 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, %da **

### Paxta tolasi




### Paxta chigiti




### Paxtadan yigirilgan ip




### Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)




### Maxsus yengil avtomobillar












*2023- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 33 994,1 tonna (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 143,2 % ga oshgan), paxta chigiti 55 642,0 tonna (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 6,8 % ga oshgan), 6 763,7 tonna paxtadan yigirilgan ip (13,5 % kamaygan), 16 855 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (2,7 % kamaygan), 5 937 dona maxsus yengil avtomobil (53,1 % ga oshgan), o‘simlik yog‘i 2 309,2 tonna (46,0 % kamaygan) hamda 18 998,9 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (9,3 % kamaygan) ishlab chiqarilish sur’atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona | 17329 | 16855 | 474 |
| Maxsus yengil avtomobillar, dona | 3879 | 5937 | 2058 |
| Paxtadan yigirilgan ip,tonna | 7822,6 | 6763,7 | -1058,9 |
| Paxta tolasi,tonna | 18201,3 | 33994,1 | 15792,8 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, tonna | 20939,8 | 18998,9 | -1940,9 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), tonna | 762,76 | 548,76 | -214,0 |

*Yanvar-mart , yirik korxonalar bo‘yicha*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,1 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,7 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,5 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,1 % va ishlab chiqarish hajmi 1 040,1 mlrd so‘mni tashkil etdi.*




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




*2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,7 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,8 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 35,7 %ga ko‘paygan va ishlab chiqarish hajmi 317,0 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 157,2 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 95,0 %ni, ishlab chiqarish hajmi 1 123,4 mlrd so‘mni tashkil etdi.*



## Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,6 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylariga ko‘ra, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 %ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,4 %ni va ishlab chiqarish hajmi 51,4 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

- **2021- yil** — **102,6 %**
- **2022- yil** — **54,1 %**
- **2023- yil** — **124,4 %**

## Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

- **2021- yil** — **169,5 %**
- **2022- yil** — **222,0 %**
- **2023- yil** — **64,7 %**

*2021- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,04 %ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 169,5 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 64,7 %ni va ishlab chiqarish hajmi 2,4 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yil yanvar-mart oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 132,9 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 173,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 25,0 mlrd so‘mni tashkil etdi.*

- **2021- yil** — **132,9 %**
- **2022- yil** — **89,2 %**
- **2023- yil** — **173,8 %**

## Elektr uskunalar ishlab chiqarish

*2021- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 94,8 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 284,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,6 mlrd so'mni tashkil etdi.*




## Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




*2021- yil yanvar-mart oylarida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 28,6 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni, fizik hajm indeksi 29,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,6 mlrd so'mni tashkil etdi.*

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*2021- yil yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 43,2 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,0 % .*

*Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 37,9 %ni, fizik hajm indeksi 101,9 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 756,3 mlrd so'mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 197,1 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 %ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 35,5 %ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln kVt.s | 46,6 | 371,8 | 325,2 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 44,6 | 56,0 | 11,4 |
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, ming so‘m | 495247,0 | 321486,0 | -173761,0 |

*Yanvar-mart ,  yirik korxonalar bo‘yicha*

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,7 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.




### Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2023- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 1573258,0 | 1248474,0 | -324784,0 |
| **Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 26844054,0 | 28118195,0 | 1274141,0 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar, *ming so‘m*** | 5246044,0 | 4064969,0 | -1181075,0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 4,7 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 15,8%ga, xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 22,5 %ga kamayganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 769,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,4 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 57,0 %ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2022- yil yanvar-mart** — **39,9%**

**2023- yil yanvar-mart** — **45,1%**

### Nooziq-ovqat mahsulotlari

**2022- yil yanvar-mart** — **60,1%**

**2023- yil yanvar-mart** — **54,9%**

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2 475,8 ming so'm (2022- yil yanvar-mart 2 005,0 ming so'm) o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 % o'sishni ko'rsatmoqda.*

**2022- yil** *yanvar-mart*
**2 475,8 ming so'm**

**2023- yil** *yanvar-mart*
**2 005,0 ming so'm**

**2022- yil** — **113,8 %**

**2023- yil** — **101,0 %**

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 892,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,4 %ni tashkil etdi.*

**2022- yil** — 16,1 %

**2023- yil** — 18,4 %

**2022- yil** — *yanvar-mart* — 525,7 mlrd so‘m

**2023- yil** — *yanvar-mart* — 892,2 mlrd so‘m

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 412,1 ming so‘m (2022- yil yanvar-mart oylarida 1 278,7 ming so‘m) o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 110,4 % o‘sishni ko‘rsatmoqda.*

**2022- yil** — *yanvar-mart* — 1 278,7 ming so‘m

**2023- yil** — *yanvar-mart* — 1 412,1 ming so‘m

**2022- yil** — 110,4 %

**2023- yil** — 128,9 %

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 4 092 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan 4 060 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 258 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to‘gri kelmoqda.*

### Jami faoliyat yuritayotgan

**2022- yil** — 4 361 dona

**2023- yil** — 4 092 dona

### Jami yangi tashkil etilgan

**2022- yil** — 319 dona

**2023- yil** — 258 dona

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

*Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha 76 ta korxonada, 99 ta loyiha mavjud bo‘lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar - mart oylarida 258,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 1,7 mln. AQSH dollarlik mahsulot eksport qilinib, 17 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan.*

| | 2023 - yil yanvar-mart | 2022 - yil yanvar-mart |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, birlik | 99 | 111 |
| Korxonalar soni, birlik | 76 | 94 |
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so‘m | 258,9 | 210,2 |